

**INSON HUQUQLARI – OLIY QADIRIYAT****Xabiybullayev Mirabat Kuanishbaevich**

Annotatsiya: maqolada bugungi rivojlangan jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan ta'minlanishida ularga berilgan kafolatlarning ahamiyati, inson huquqlarini ta'minlashga doir faoliyat olib boruvchi ijtimoiy institutlarning o'rni hamda axborot texnologiyalari yangi bosqichga ko'tarilgan bir paytda uning inson huquqlariga ta'sirini baholash masalasining dolzarbligi masalalari maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: huquq, ombudsman, xalqaro-huquqiy munosabatlar, huquqiy kafolat, deklaratsiya.

Hozirgi raqamlashtirish davrida huquq sohasida inson huquqlari va ularni ta'minlashning xalqaro huquqiy jihatlarini tadqiq qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunga sabab jamiyatning tobora rivojlanishi va uning ehtiyojlarining jadallik bilan ortib borishidir. Ushbu ehtiyojlarni qanoatlantirish o'z navbatida inson huquqlariga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi va yangi huquq sohasi, ya'ni raqamli inson huquqlari kabi yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu masalani to'liq tahlil qilish uchun uning nazariy jihatlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar xalqaro va mintaqaviy miqyosda inson huquqlari kafolatlarini ta'minlovchi xalqaro shartnoma va konvensiyalar kabi bir qator ahamiyatli xalqaro-huquqiy hujjatlarni imzolashgan. Bu esa o'z navbatida ushbu davlatlarning ichki qonunchiligi doirasida bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlarni yuzaga keltiradi.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi XX asrning eng muhim hujjatlaridan biridir. 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul



qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bugungi kunda ma'lum bo'lgan inson huquqlari tushunchasining tub mohiyatini ochib berdi. Deklaratsiya turli siyosiy tizimlarga ega bo'lgan davlatlarda inson huquqlarini bir xilda tushunish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, inson huquqlari sohasida standartlashtirishga asos soldi [1].

Global darajadagi xalqaro majburiyatlarga asoslangan inson huquqlari kafolatlari inson huquqlarini global darajada himoya qilish uchun yaratilgan mexanizm va institutlardir. Ushbu kafolatlar insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro norma va standartlarni belgilaydi, shuningdek, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, umumjahon miqyosida inson huquqlarini ta'minlash faoliyatining xalqaro miqyosda inson huquqlari ta'minlanishi bo'yicha kengash, qo'mitalar hamda maxsus ma'ruzachilar kabi monitoring va nazorat qiluvchi institutlar tashkil etildi.

Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar turli mamlakatlarda har hil darajalarda, jumladan milliydan to xalqaro darajagacha amalga oshiradigan keng ko'lamli huquqiy, institutsional va amaliy chora-tadbirlarni qamrab oladi. Bugungi kunda xorijiy amaliyotda esa fuqarolarning huquqlari, ularni himoya qilish mexanizmi, odil sudlovga erishish va kamsitishlardan himoyalaniish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlanishida turli hil darajadagi kafolatlarini tahlil qilib borish dolzarblikni paydo qilmoqda. Xususan, inson huquqlarini ta'minlanishida asosiy kafolatlarni quyidagicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, inson huquqlarini ta'minlashda konstitutsiyaviy kafolatlar har bir jamiyatda ahamiyat jihatidan yuqori o'rinda turadi. Chunki, ko'pgina mamlakatlarda konstitutsiyalar asosiy normalar sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlaydi. Bu hujjatlarda ko'pincha inson huquq va erkinliklari, ularni himoya qilish mexanizmlari batafsil bayon etilgan bo'ladi. Xususan, O'zbekistonda inson



huquqlari sohasini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan davlat institutlari turli shakl va vakolatlarga ega. Bu organlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tuzilmalardan tortib, mustaqil inson huquqlari tashkilotlari va sud tizimlarigacha turli darajalarda faoliyat yuritadi. Ularning birgalikdagi faoliyatida fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilish, davlatlar tomonidan xalqaro maydonda inson huquqlari sohasida o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarishga ko'maklashuvchi mustaqillik, javobgarlik va mas'uliyat tamoyili muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, mamlakatimizda inson huquqlarining samarali ta'minlanishida 2021-yil 11-sentyabr sanasida kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6312-sonli Farmonining ahamiyati beqiyosdir [2].

Eng avvalo, jamiyatning qonun qabul qiluvchi bo'g'iniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, parlamentlar va assambleyalar kabi qonun chiqaruvchi organlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi. Ular inson huquqlarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratadi.

Ijro etuvchi hokimiyat inson huquqlarini himoya qilish siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari jumladan, ichki ishlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat hamda boshqa vazirliklar va idoralar turli sohalardagi huquqlarni ta'minlash uchun javobgardir.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, adolatni ta'minlash, huquq-tartibotni ta'minlashda inson huquqlarining davlat tomonidan ta'minlangan kafolatlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu kafolatlar nafaqat inson huquqlari buzilishining oldini olishga, balki sodir etilgan huquqbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etishga ham yordam beradi. Ular fuqarolarning jamiyatda adolatli va xavfsiz yashashi



uchun huquqiy asos yaratadi, shuningdek, davlatning xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
2. <https://lex.uz/docs/5625269>